

ELEKTRON SAVDO VA ONLAYN XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARASI

Sharipov Qudratbek Quraltayevich
sharipovqudrat@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda elektron savdo va onlayn xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirishning iqtisodiyotga ta'siri, raqamli bozor imkoniyatlari hamda O'zbekistonda mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinadi. Raqamlashtirish jarayoni tashqi savdo, xizmatlar bozori va kichik biznes uchun yangi imkoniyatlar yaratishi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: elektron savdo, raqamli iqtisodiyot, onlayn xizmatlar, innovatsiya, internet marketing, raqamli platformalar

O'zbekiston sharoitida elektron savdo va onlayn xizmatlar sektori so'nggi yillarda sezilarli sur'atlarda rivojlanmoqda. Elektron tijorat aylanmasi yildan-yilga ortib bormoqda, mobil va optik internet infratuzilmasining kengayishi ushbu yo'nalishga katta turtki bermoqda. Mahalliy e-commerce platformalari — Uzum Market, Asaxiy, ZoodMall, Goodzone, Elmakon kabi maydonlar bozorda faoliyat yuritmoqda. Ular minglab tadbirkorlarga raqamli savdo imkoniyatini berib, logistika va marketing xarajatlarini keskin kamaytirishga yordam bermoqda. Onlayn to'lov tizimlarining rivojlanishi ham muhim ahamiyatga ega. Payme, Click, Apelsin, UzumPay va Paynet kabi platformalar aholining moliyaviy texnologiyalardan foydalanish madaniyatini oshirmoqda, bu esa naqd pulsiz iqtisodiyot ulushini oshirishga xizmat qilmoqda. Sog'liqni saqlash, ta'lim va davlat xizmatlari sohasida raqamli tizimlar keng joriy etilmoqda. My.gov.uz, id.egov.uz platformalari, telemeditsina, onlayn o'qitish tizimlari aholiga tezkor va qulay xizmat ko'rsatmoqda. Raqamli O'zbekiston — 2030¹ strategiyasi doirasida elektron hukumat tizimi kengaytirilmoqda, biznesni onlayn ro'yxatdan o'tkazish, soliq hisobotlarini elektron shaklda topshirish, bojxona jarayonlarini raqamlashtirish yo'lga qo'yilgan. IT-parklar faoliyati va startaplar uchun soliq imtiyozlarining mavjudligi natijasida yuzlab yangi onlayn xizmatlar platformalari yaratilmoqda, yoshlar IT sohasida keng imkoniyatlarga ega bo'lmoqda.

Yil	Elektron savdo ulushi % da YaIM ga nisbatan
2020	1%
2021	1.5%
2022	2.2%


¹ <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

2023	2.5%
2024	2.8%

O‘zbekistonda elektron xizmatlar ko‘rsatuvchi xorijiy kompaniyalar 124,8 mlrd so‘mdan ortiq soliq to‘lagan

O‘zbekistonda elektron xizmatlar ko‘rsatuvchi 73 ta xorijiy kompaniya tomonidan 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida 124,8 mlrd so‘m soliq to‘langan. Bu 2024-yilning mos davriga nisbatan 44% o‘shir.

To‘langan soliqlarning 93%i elektron xizmatlar ko‘rsatuvchi quyidagi 10 ta xorijiy kompaniyalar hissasiga to‘g‘ri keladi:²



Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi O‘zbekistonda tashqi savdo, xizmatlar bozori va kichik biznes faoliyatida tub o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Zamonaviy IT yechimlari, elektron platformalar va elektron to‘lov tizimlarining rivoji jarayonlarning shaffofligi va tezligini oshirishi bilan birga, iqtisodiy subyektlarga yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

-Tashqi savdo uchun imkoniyatlar:

Raqamlashtirish tashqi savdo jarayonlarida bojxona va sertifikatlash tizimlarini elektronlashtirish orqali eksport-import operatsiyalarini soddalashtiradi. Elektron kontraktlar, onlayn bojxona deklaratsiyasi, elektron logistika kuzatuv tizimlari tashqi iqtisodiy faoliyatni tezlashtiradi va xarajatlarni kamaytiradi. Bu eksportchilar sonining oshishiga, mahalliy mahsulotlarning jahon bozoriga chiqishini yengillashtirishga xizmat qiladi.

Xizmatlar sektorida raqamli platformalar paydo bo‘lishi yuzlab yangi xizmat turlarining shakllanishiga olib kelmoqda. Elektron bank xizmatlari, fintex tizimlari, onlayn ta‘lim, telemeditsina, raqamli marketing, transport-logistika xizmatlari va masofaviy konsalting bozorining kengayishi xizmat sifati va qulayligini oshirmoqda.

² <https://t.me/fiskaltahlil/1320>

Natijada aholining xizmatlarga bo‘lgan talabi ortib, sektorda raqobat kuchaymoqda, bu esa xizmatlar sifatini oshirishga undaydi.

Kichik biznes uchun elektron savdo maydonlari yangi bozor segmentlariga kirishni, mijozlar bazasini kengaytirishni va xarajatlarni optimallashtirishni ta’minlamoqda. Ijtimoiy tarmoqlar orqali savdo qilish, marketplace platformalaridan foydalanish, onlayn reklama vositalarini qo‘llash tadbirkorlarga an’anaviy savdo kanallariga nisbatan ko‘proq imkoniyat yaratmoqda. Raqamli hisob-kitob tizimlari, CRM dasturlari, onlayn kassalar biznes samaradorligini oshiradi va moliyaviy intizomni mustahkamlaydi.

Raqamlashtirish orqali startaplar va erkin kasb egalari (freelancerlar) uchun ham keng yo‘l ochilgan. IT-parklar va davlat qo‘llab-quvvatlashi natijasida yoshlar global IT bozori va xizmatlar eksportida faol ishtirok eta boshladi. Umuman olganda, raqamlashtirish mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirib, biznes muhitini yaxshilash, yangi ish o‘rinlari yaratish va xizmatlar eksportini ko‘paytirish kabi muhim natijalar bermoqda.

O‘zbekiston sharoitida elektron savdo va onlayn xizmatlar sohasining jadal rivojlanishi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim drayverlaridan biriga aylanmoqda. E-commerce infratuzilmasining takomillashuvi, to‘lov tizimlarining raqamlashtirilishi, logistika xizmatlarining modernizatsiyasi va aholi raqamli savodxonligining osishi natijasida onlayn savdo hajmi yildanyilga ortmoqda. Elektron savdoning rivojlanishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun keng bozor imkoniyatlarini yaratib, ichki raqobatni kuchaytirmoqda, soliqlardan tushumlar ortmoqda va xizmatlar eksporti kengaymoqda. Shuningdek, raqamli xizmatlar bo‘yicha yangi ish o‘rinlari paydo bo‘lishi, IT sohasida startaplar ko‘payishi va innovatsion biznes modellarining shakllanishi kuzatilmoqda. Davlat tomonidan elektron hukumat, elektron tijorat infratuzilmasi, elektron imzo, onlayn bank xizmatlari va xalqaro to‘lov tizimlariga integratsiya bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar ushbu sohaning barqaror rivojlanishini ta’minlamoqda. Ayniqsa, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida raqamli transformatsiya jarayonlari kengayib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4699-son qarori. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–60-son Farmoni. “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi”. – Toshkent, 2022.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2015 (yangi tahrir).
4. UNCTAD. Digital Economy Report 2023. – Geneva: United Nations, 2023.
5. OECD. E-Commerce in the Digital Era. – Paris: OECD Publishing, 2022.

(8th international scientific and practical conference)

6. World Bank. Uzbekistan Digital Economy Country Report 2022. – Washington DC, 2022.

7. Statista Digital Market Outlook: E-commerce Uzbekistan, 2024.



(8th international scientific and practical conference)